

IMOM AT-TERMIZIY ASARLARINING FALSAFIY VA AXLOQIY  
TAHLILI

ФИЛОСОФСКИЙ И ЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ  
ИМАМА АТ-ТЕРМИЗИ

PHILOSOPHICAL AND ETHICAL ANALYSIS OF THE WORKS OF  
IMAM AT-TERMIZI

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”

*nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,*

**Murtazayev B.X**

*Ijtimoiy fanlar kafedrasi 2-kurs magistranti,*

*e-mail: baxtiyor@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Imom at-Termiziy asarlari va uning yozilish asoslari ochib berilgan. Shuningdek, muhaddis asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlar va uning ma’naviy olamga ta’siri yoritib berilgan. Qolaversa, muhaddis asarlarining falsafiy dunyoqarashga ta’siri ochib berilgan. Shu bilan birga uning asarlarining keyingi davr olimlari asarlariga ilmiy ta’siri keltirib o’tilgan.*

**Kalit so’zlar:** *«Al-ilal al-kabiyr» yoki «Al-mufrad», sahih (to’g’ri, ishonchli) hadis, hasan (yaxshi, ma’qul) hadis, zaif (bo’sh, ishonchsiz) hadis, g’arib (g’alati) hadis, «Ilal» masalasi.*

**Аннотация:** *В данной статье раскрываются произведения Имама ат-Тирмизи и основы его письма. Также освещены нравственные взгляды, выдвигаемые в произведениях Мухадди, и их влияние на духовный мир. Кроме того, выявляется влияние произведений Мухаддиса на философское мировоззрение. При этом отмечается научное влияние его работ на работы ученых следующего периода.*

**Ключевые слова:** *«Аль-илаль аль-кабир» или «Аль-Муфрад», sahih (истинный, достоверный) хадис, хасан (хороший, приемлемый) хадис, слабый (слабый, недостоверный) хадис, гариб (странный) хадис, «Иляль» проблема.*

**Abstract:** *This article reveals the works of Imam al-Tirmidhi and the basis of his writing. Also, the moral views advanced in the works of Muhaddis and its influence on the spiritual world are highlighted. In addition, the influence of Muhaddis's works on the philosophical outlook is revealed. At the same time,*

*the scientific influence of his works on the works of the scientists of the next period is mentioned.*

**Key words:** «*Al-ilal al-kabir*» or «*Al-mufrad*», *sahih* (true, reliable) *hadith*, *hasan* (good, acceptable) *hadith*, *weak* (loose, unreliable) *hadith*, *gharib* (strange) *hadith*, «*Ilal*» issue.

Imom at-Termiziy hijriy 209 (milodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida o'rta hol bir oilada tavallud topgan. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam'oniy (1113-1167) at-Termiziy Bug' qishlog'ida vafot etganligi uchun al-Bug'iy taxallusi bilan ham atalganini, olimning ko'p yig'laganidan umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan az-Zariyr (ko'zi ojiz) taxallusini olganligini ham qayd qiladi. Xalq orasida Termiziy nomi bilan mashhur bo'lishiga sabab, buyuk muhaddisning hayoti va faoliyati yoshligidan boshlab Termiz bilan chambarchas bog'liq bo'lganligidan, shuningdek, olim tug'ilgan Bug' qishlog'i Termizga yaqin bo'lib, ma'muriy idoraviy jihatdan unga mansub qishloqlardan ekanligidan deb izohlash mumkin.

Uzoq yillar davom etgan safarlari chog'ida at-Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix kabi fanning boshqa sohaları hamda ko'plab ustozlardan saboq oladi.

Shu bilan bir qatorda at-Termiziy payg'ambar alayhissalom hadislarini to'plashga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o'zi o'qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisini alohida qog'ozlarga qayd etib borar, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilsagina maxsus qog'ozlarga qayd etardi. Hadislarning to'g'riligiga shubha bo'lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar sahih (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaif (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati) kabi xillarga ajratilgan.

Adabiyotlar tahlilicha, Imom at-Termiziyning bizgacha yetib kelgan «Al-ilal fil-hadiys» («Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar») nomli muhim asari ikki mustaqil asardan tashkil topgan. Ulardan biri «Al-ilal al-kabiyr» yoki «Al-mufrad» nomi bilan atalgan asari bizgacha yetib kelmagan, degan taxmin bor. Garchand aksar tadqiqotchilar ham shunday fikrda bo'lsalar-da, Imom at-Termiziyning hayoti va faoliyatiga doir maxsus risola yozgan olim Nuriddin Atar Turkiyaning qimmatli qo'lyozmalarga boy kutubxonalaridan birida at-Termiziyning «Al-ilal al-kabiyr» asarining yagona qo'lyozmasini ko'rgani va undan fotonusxa olib o'z tadqiqotining ushbu qayta nashrida foydalangani haqida yozadi. Uning yozishicha, at-Termiziy «Al-ilal al-kabiyr»ni ta'klif etgan paytda uni boblarga bo'lmagan holda yozgan. Ammo keyinchalik bu ajoyib kitob

olim Abu al-Valid al-Qoziy tomonidan tartibga keltirilib boblarga ajratilgan va kitob oxirida mustaqil bir bob, hadis rijjol (roviy)lari haqidagi fikr mulohazalar bayon etilgan.

Darhaqiqat, «Al-ilal»ning ikkinchisi «Al-ilal as-sag'iy» deb ataladi. U muallifning bosh asari «Al-Jomi' as-sahiyh»ga bevosita aloqador bo'lganligi sababli xotima tariqasida ushbu asarning oxirida keltirilgan. Umuman olganda, arabcha «ilal» so'zi «illat»ning ko'pligi bo'lib, o'zbekcha kasal, betob, xasta, noqis, illatli, og'ish kabi lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, hadis ilmida ilal masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli sabablarga ko'ra roviylar tomonidan yo'l qo'yilgan zaiflik, noaniqlik, g'alat, xato, sahv u kabi yanglishlar tadqiq etiladi. Ko'pgina muhaddislarning hadislarga bu jihatdan ham katta e'tibor berib, asarlar yaratgani bu ilmning islom ta'limotida g'oyatda foydali va muhim ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Illatli hadislar xususida Imom al-Buxoriyning ustozlari Ali ibn Abdulloh al-Madiyniy, Imom Ahmad ibn Hanbal, Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy, Abu Hotam va boshqalar asarlar yozganlar. Mana shu buyuk muhaddislar orasida ham Imom at-Termiziyning ilal to'g'risidagi asarlari hadislarning siqasi (to'g'riligi, aniqligi)ni tekshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Imom at-Termiziyning o'zlari «Ilal» masalasi xususida: «Bu (ilal) masalada uzoq vaqt fikr-mulohaza yuritdim, buning boisi shundaki, bizdan shu xususda so'ralganda, oldin o'z nuqtai nazarimizni ochiq-oydin aytmadik. Sababi, bizdan avval ilal masalasi xususida so'ralgan bir qancha ulamolar ham o'z fikrlarini bildirmaganlar, shuningdek, ba'zi muhaddislar o'rtalarida hadisda siqa (ishonchli) bo'lgan roviylarning xato, yanglish va kamchiliklarini aytish g'iybat bo'ladi, degan ulamolar ham bor edi. So'ng bir qancha mashhur muhaddislar, xususan, ustoz Imom al-Buxoriy bilan bir necha yillik muloqotda bo'lganimdan keyin hamda mazkur fikrga aloqador rivoyatlarni eshitgandan keyin ilal masalasini oshkora qilishga jazm qildim. Na Iroqda, na Xurosonda ilal, tarix va isnodlar sohasida Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan ko'ra bilimdonroq biror olimni ko'rmadim», deb ta'kidlaydilar.

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida «al-Jomi as-sahih» («Ishonchli to'plam») eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, «al-Jomi al-kabir», («Katta to'plam»), «Sahih at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyni yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan. Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda,

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi as-sahih» bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini ta'kidlash lozim. Xususan, muhaddisning ushbu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbilyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy» deb ataladi. To'rt juzdan iborat bo'lgan bu asar 1979-yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir. O'z ustozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim asos solgan xayrli ishni Imom at-Termiziy chuqur mas'uliyat va katta idrok bilan davom ettirdi. Hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muhaddislardan biri darajasiga ko'tarildi. Abu Iso at-Termiziyning shoh asari bo'lmish «Al-Jomi as-sahih» olim mashaqqatli mehnatining mahsuli sifatida hadis ilmida katta ahamiyatga ega. Eng avvalo shuni aytish kerakki, muallif o'z asarini alohida-alohida boblarga bo'ladi, imkoni boricha har bir hadis roviylarini keltiradi. Har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab alohida ko'rsatadi. Oldinroq biz asarini «As-sunan» («Sunnatlar») nomi bilan («Sunan at-Termiziy») atalishini ham eslatib o'tgandik. Bu nom bilan atalishiga asosiy sabablardan biri - unda fiqh masalasiga doir ahkom hadislar juda ko'p keltirilgan. Shular bilan bir qatorda asarda pand-nasihat, axloq-odob, go'zal xulqu fazilatlar xususida ham juda ko'p hadisi shariflar keltirilganki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchramaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarkibiy jihatdan asar quyidagi boblarga bo'linadi. Undan tahorat, salot (namoz), zakot, ro'za, haj, janoza, nikoh, emizish, taloq, savdo-sotiq, qozilik ahkomi, tovon to'lash, me'yor, sayd, qurbonlik, nazr-nuzur, iymon, siyratlar, jihod, kiyim-kechak (libos), taomlar, ichimliklar (al-ashriba), xayr-ehson va saxovat, tabobat, farzlar, vasiyatnomalar, xayrixohlik va taqdir, xuruju fitnalar, bashoratlar, shahodatlar, zohidlar, jannat va jahannam sifatleri, ilm, izn so'rash, odob va

axloq, masallar, Qur'on fazilatlar, qiroat, tafsir, duolar, manonqiblar (fazilatlar), illatlar haqidagi boblar keltirilgan. Mana shu boblar asarda sarlavha tarzida bo'lingan bo'lib, bobga doir hadislar bo'lim mazmunini to'la-to'kis ifodalaydi. Ushbu bobga doir masala bo'yicha muallif bir qancha hadislarini keltiradi, so'ng bu masala yuzasidan boshqa ulamoyu faqihlarning fikrlarini ham batartib bayon etadi. Undan keyin rivoyat qilingan hadisning sahih, hasan, zaif yoki g'aribliigi darajasiga o'z munosabatini bildiradi. Shundan so'ng hadis roviylari, sanadlari va sanadning o'z ichiga olgan illatlari xususida o'z fikrini bildiradi.

Yuqorida aytilgan fikrimizga misol tariqasida Abu Iso at-Termiziyning «Al-Jomi' as-sahih» asarida «Tahorat» bobida «Safardagi va bir joyda muqim turgan kishi mahsisiga mash tortishi» haqida keltirilgan bir hadis xususida mufassal to'xtalamiz. «Bizlarga Qutayba so'zlab berdi, unga Abu Uvona rivoyat qilgan, u Sa'yid ibn Masruqdan, u Ibrohim at-Tayamiydan, u Amir ibn Maymundan, u Abu Abdulloh al-Jadaliydan, u Xuzayma ibn Sobitdan, u payg'ambar alayhissalomdan rivoyat qiladilar. Rasuli akramdan mahsiga mash tortish haqida savol bilan murojaat qilganlarida, payg'ambar alayhissalom: «Safardagi kishi uchun uch kecha-kunduz, bir joyda muqim kishi esa bir kecha-kunduz o'z mahsisiga mash tortadi», deb javob qilganlar. Yahyo ibn Mu'iyin mash haqidagi Xuzaymadan rivoyat qilgan ushbu hadisni sahih (ishonchli) deydilar. Shuningdek, Imom Abu Iso at-Termiziy aytadilar: «Bu hadis hasan (ma'qul) va sahihdir». Shu bob haqida Ali, Abu Bakr, Abu Hurayra, Safvon ibn Ussol, Avf Ibn Molik, Ibn Umar va Jariyrdan rivoyat etilgan hadis bor. Bizlarga Xudod rivoyat qildi, u Abul Ahvasdan, u Osim ibn Abi an-Nujuddan, u Zar ibn Xubayshdan, u Safvon ibn Ussoddan, u aytdi: «Rasululloh sallollohu alayhi vasallam safarida birga bo'lgan chog'larimizda bizlarga uch kechayu uch kunduzgacha choriq - mahsilarimizni yechmaslikka buyurardilar.

At-Termiziy zamonidagi olimlar uning hadis ilmidagi xizmatlarini yuksak baholaganlar. Hadis imomlaridan biri Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisiy «at-Termiziy hadis ilmida iqtido qilinadigan imomlardan biridir», deb yozsa, Taquiuddin ibn Taymiya «Abu Iso at-Termiziy birinchi bo'lib hadislarini sahih, hasan, zaifga taqsim qilgan olimdir», deb guvohlik beradi. Abu Iso at-Termiziy asarlari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Uning «Al-Jomi' as-sahih», «Ash-shamoil an-nabaviyya» kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib insonlarni halol, adolatli, iymon-e'tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmat-e'tiborli bo'lishga chorlaydi. Bu ibratli pand-nasihatlilar va o'gitlar xalqimizni, jamiyatimiz ahlini, ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash o'rinlidir. At-Termiziyning asarlari faqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan,

balki dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari bo'lgan «al-Jomi' as-sahih»da tarix, mantiq huquqshunoslik, tabobat, ziroatga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Arab tilini rivojlantirishda at-Termiziyning xizmatlari kattaligini zamonaviy olimlar qayta-qayta ta'kidlaydilar. Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimizning shaxsiy hayoti va uning boy ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Nuriddin Atar. Al-Imom at-Termiziy. - B.21-22.
2. Qodirov Q.B. Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziyning muhaddislik faoliyati va tarbiyaviy qarashlari. – T., 2008. – B. 27.
3. Al-Xatib al-Bag'dodiy. Tarixi Bag'dod, 2-jild, - B.19.
4. Халидов А. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – Москва: 1985. - С.143.
5. Aminov. M, F. Hasanov. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – B.41.
6. Muhammad Anvarshoh al-Qashmiyriy. Al-Arf ash-shaziy, 1-jild, - B. 6-7.
7. Shamsuddin az-Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. 12-jild, - B. 404.